



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA USLUBIY XOSLANISHNI
FARQLASH XUSUSIDAGI QARASHLAR
VIEWS ON DIFFERENTIATION OF STYLISTIC FEATURES IN
UZBEK LINGUISTICS**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/LUJS4554

Elova Dilrabo Quدراتillayevna
ToshDO‘TAU o‘zbek tilshunosligi
kafedrasi dotsenti, PhD.
dilraboelova@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanish masalalarining shakllanishi, funksional uslublarning tadqiq etilish yo‘nalishlari hamda til birliklarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish muammolari yoritiladi. Shuningdek, V. Vinogradov, G. Vinokur, A. Potebnya kabi olimlarning stilistik qarashlari hamda o‘zbek tili stilistikasining mustaqil fan sifatida rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek tilining funksional uslublarini aniqlash, grammatik va leksik birliklarning uslubiy xususiyatlarini belgilash, shuningdek, nutq madaniyati bilan bog‘liq nazariy muammolar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** uslub, funksional stilistika, til korpusi, grammatik stilistika, nutq madaniyati, lingvostilistika, stilistik norma.*

***Annotation.** This article examines the development of stylistic differentiation issues in Uzbek linguistics, the directions of studying functional styles, and the problems of investigating the stylistic characteristics of linguistic units. It also analyzes the stylistic views of scholars such as V. Vinogradov, G. Vinokur, and A. Potebnya, as well as the process of establishing Uzbek stylistics as an independent discipline. The paper discusses the identification of functional styles in the Uzbek language, the stylistic properties of grammatical and lexical units, and theoretical problems related to speech culture.*

***Keywords:** style, functional stylistics, language corpus, grammatical stylistics, speech culture, linguostylistics, stylistic norm.*

O‘zbek tilshunosligida funktsional uslublarni o‘rganish, tilning stilistik resurslarini belgilash bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Buning natijasi o‘laroq ilmiy asarlar: monografiya, maqola va tezislar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar maydonga kelgan. Shular asosida o‘zbek tili stilistikasi mustaqil fan sifatida shakllanib bordi. Uslubiyat bilimimiz sirasini tilning funksional aspekti va nutq uslublarining lingvistik, ekstralingvistik muammolari, ularning o‘zaro munosabati haqidagi bilimlar bilan boyitadi. Uslubiyat sof amaliy ahamiyatga ham ega: uslubiyatni o‘rganish, uning tamoyil, me‘yorlarini bilish nutq madaniyatini oshirishda muhimdir. Shunga ko‘ra, uslubiyat jamiyatning lingvostilistik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi, til faktlariga baho berishga o‘rgatadi,

mazmun va muloqot vaziyatiga mos til vositalarini tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tilshunoslikda til va nutqning farqlanishi stilistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga olib keldi. V.Gumboldt, I.Boduen de Kurtene, G.Vinokur, L.Yakubinskiy, V.Vinogradov, N.Shvedova, chex tilshunosligi maktabining vakillari va boshqa tilshunos olimlar nutqni o‘rganish masalasiga katta e‘tibor qaratishgan. Adabiy tilni o‘rganish, uning me‘yorlarini belgilash zarurati tufayli nutqning sotsial aspektiga keng e‘tibor qaratilgan. Rus, chex, ingliz, nemis va boshqa tillarda nutqni o‘rganish keng tus olib, shu asosda lingvistik stilistika shakllandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek tilshunosligida uslubiyatning predmeti, metodlari, asosiy kategoriyalari, nutq uslublarining tasnifi, ekstralingvistik-lingvistik faktorlar, ularning o‘zaro munosabati kabi qator masalalarga aniqlik kiritishga keng e‘tibor qaratildi.

Uslubiyat sohasida so‘nggi yillarda yuzaga kelgan asarlarning aksariyatida badiiy uslub leksikasi haqida fikr yuritilgan. O‘zbek tiliga oid ilmiy asarlarda u yoki bu til birligining ayrim uslubiy xususiyatlari haqida esa ba‘zi ma‘lumotlar berilgan, xolos. Ayniqsa, grammatik stilistika bo‘yicha maxsus tadqiqot deyarli mavjud emas. Bu esa o‘zbek tili korpuslari uchun grammatik shakllarning uslubiy belgilarini aniqlash, ularni korpus qidiruviga olib kirish uchun nazariy manbalarning yetishmasligini ko‘rsatadi.

V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo‘lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarurligini uqtiradi. U stilistikani uch qismga ajratadi:

1) tilning funktsional uslublarini o‘rganuvchi stilistika (структурная стилистика);

2) turli janrlarning semantik, ekspressiv-stilistik xarakterlarini hamda og‘zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi (стилистика речи);

3) adabiy yo‘nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi badiiy adabiyot stilistikasi [Виноградов, 1963: 93].

O‘zbek tili korpuslarida reprezentativlikka erishish, ya‘ni o‘zbek tilining turli uslubdagi matnlarini qamrab olish (aniqrog‘i, korpusda turli uslubga xos matnlarni berish) juda muhim. Chunki o‘zbek tilining o‘ziga xos jozibasini faqat ma‘lum uslubga oid matnlarni yig‘ish bilan ko‘rsatib bo‘lmaydi. Shu sababli dastlab funktsional uslublarning chegarasini aniq qo‘yish hamda manbaning shu uslublardan qaysi biriga tegishli ekanligi haqida teg biriktirish, annotasiya yozish korpus birliklarini annotasiyalash jarayonining asosiy bosqichlaridan biri sanaladi.

“O‘zbek tili stilistikasi” darsligida uslubiyatning mundarijasi xususida shunday deyiladi: “Milliy til uslubiyatining mundarijasi birmuncha keng: u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Bu stilistik sistema uslublardan tashqari, tilning yozma va og‘zaki shakllari, adabiy va so‘zlashuv nutq ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, uslubiyat til birliklaridan qaysi biri u yoki bu uslubda yozma/og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi, degan masala bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, uslubiyatga fikr va maqsadni ifodalashda til

vositalarining to‘g‘ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo‘llarini belgilash vazifalari yuklatiladi. Stilistik belgi-sifatlar til birliklarining barchasida mavjud. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar stilistikaning ham predmeti hisoblanadi” [Шомақсудов ва бош., 1983: 7].

Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, o‘zbek tili korpuslarida til birligining uslubiy, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, uslubiy bo‘yoqdor va uslubiy betaraf leksik birliklarning farqlanishi o‘zbek tili korpusining informativlik xususiyatini oshiradi.

Y.Tojiev, N.Xasanova, X.Tojimatovlar jahon tilshunosligida uslubiyat va nutq madaniyatining o‘rganilishi xususida fikr yuritishar ekan, shunday yozishadi: “Rus tilshunosligida ham ko‘plab uslubiyat va nutq madaniyatiga oid maxsus kitob, qo‘llanma, xrestomatiyalar nashr etilgan; bir necha yil davomida “Nutq madaniyatining dolzarb masalalari” to‘plamlari nashr qilingan. She‘riyat tilini o‘rganishga bag‘ishlangan alohida (“Fan” nashriyoti, M., 1977), Nasr tiliga bag‘ishlangan alohida (“Fan” nashriyoti, M., 1977) kitoblari A.N.Vasilevaning “Badiiy nutq” (Художественная речь) kitobi (M., “Русский язык”, 1983), L.A.Novikovning “Badiiy matn va uning tahlili” (M., “Русский язык”, 1988) kitobi, 1971 yilda nashr qilingan “Вопросы языка современной русской литературы” kabi o‘nlab kitob, uslubiyat, matn lingvistikasiga oid yana ko‘pgina kitoblar fikrimizning dalilidir” [Тожиев, Хасанова, Тожиматов, 1992: 10].

Nazariy jihatdan puxta ishlangan, sayqallangan, imkoniyatlari to‘la ochib berilgan til madaniy tildir. Va nihoyat, ana shunday madaniy tilni, madaniy qurolni yaratishga, uning taqdiri (o‘rganilishi, saqlanishi, takomillashuvi, rivojlanishi)ga bo‘lgan munosabat til madaniyatidir. Bu munosabat salbiy (yomon) bo‘lsa, shu xalqning, uning vakillarining til madaniyati ham past bo‘ladi, agar ijobiy (yaxshi) bo‘lsa, til madaniyati ham yuksak bo‘ladi. Bu esa shu xalqning umummadaniyatini belgilaydi. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek adabiy tilini madaniy jihatdan yanada yuksak darajaga olib chiqish uchun, unga bo‘lgan munosabat yanada yuksak darajada bo‘lishini ta‘minlash lozim [Тожиев, Хасанова, Тожиматов, 1992: 17].

Til korpuslarida ma‘lum tabiiy til bor tabiatini namoyon qilish imkoniga ega bo‘larkan, tilni rivojlantirish, asrash, saqlash va uning imkoniyatini ko‘rsatishda til korpusi zamonaviy axborot-qidiruv vositasi bo‘la oladi. Bu jihatdan hatto nutq madaniyati va milliy lisoniy madaniyatni ko‘z-ko‘z qilish va targ‘ib etishning yaxshigina quroli ham bo‘lishi mumkin.

Mashhur rus olimi M. V. Lomonosov: “Turli fikrlarni ifodalash uchun so‘z topa olmaslikni tilning kambag‘alligidan emas, balki o‘zimizda mahorat yo‘qligidan deb bilish kerak”, – degan edi [Ломоносов, 1743: 7].

Y. Tojiev, N. Xasanova, X. Tojimatovlar esa: “Nutqni yomon tuzsak, tilimizdan o‘pkalamaylik. Ana shu noyob qurolni mohirlik bilan ishlatganlar ham juda ko‘p, yomon ishlatadiganlar, hatto, umuman ishlatishni bilmaydiganlar ham bo‘ladi” [Тожиев, Хасанова, Тожиматов, 1994: 16] – deyishadi.

Keyingi yillarda savodxonlikni yanada oshirishga, nutq madaniyatini to‘la egallashga ko‘maklashadigan bunday asarlar, qo‘llanmalar ko‘plab yaratildi.

R. Qo‘ng‘urov esa bunga quyidagicha munosabat bildiradi: “Afsuski, o‘zbek tili nutq madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o‘rganish o‘rtaga jiddiy qo‘yilgan emas. Ba’zi mualliflarning “Nutq madaniyati muammosining paydo bo‘lishi va asoslanishi” (1973), “Tilshunoslikning muhim sohasi” (1973), “Nutq madaniyati tushunchasi haqida” (1975), “Nutq madaniyati mezonlari” (1976), “O‘zbek nutqi madaniyati masalalari” (1980), “Notiqning nodir boyligi” (1980), “Adabiy norma va nutq madaniyati” (1983) kabi ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan” [Кўнфуров, 1990: 5].

E. Begmatov masalaga quyidagicha yondashadi: “Bizning fikrimizcha, nutq madaniyati sohasi o‘z o‘rni va fandagi mavqeini to‘la egallashi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy muammo sifatida tarixi yoritilmog‘i kerak. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o‘rganuvchi asosiy obyekt bo‘lgan til hodisasi aniqlanishi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy - tadqiqiy obyekti bilan bog‘liq muammolar belgilanishi lozim. To‘rtinchidan esa, nutq madaniyatini o‘rganish aspektlari lisoniy va nolisoniy chegaralanishi zarur” [Бегматов, 1973: 156].

Demak, uslubiyat va nutq madaniyatining nazariy asoslari va muammolarini aniqlamasdan turib, tilning uslubiy o‘ziga xosligi, jozibasi, nutq madaniyati nuqtai nazardan turli belgilarini til korpuslarida aks ettirish mumkin emas.

R. Qo‘ng‘urov o‘rinli ta’kidlaganidek, “O‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan nutq madaniyati muammosi o‘zining nazariy asosiga ega. Shu narsaning o‘ziyoq uni o‘zbek tilshunosligining alohida sohasi sifatida o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Nutq madaniyati o‘zining tadqiqot ob’ektiga ham ega. Garchi til birliklarini normalash, hamma uchun tushunarli bo‘lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifalaridan biri bo‘lsa ham, u nutq madaniyati, uslubiyat sohasining xizmatlarini ham inkor etmaydi. Nutq madaniyati tilda ma’lum normaga keltirilgan til birliklarining nutqda qo‘llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu normaga amal qilishni ma’lum ma’noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, ularni tugatishning eng ma’qul yo‘llari ko‘rsatib turiladi” [Бегматов, 1973: 156].

R. Qo‘ng‘urov o‘zining “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari” qo‘llanmasida adabiy til me’yoriga amal qilish xususida shunday yozadi: “Adabiy til va uning normativ vositalari, ulardan foydalanish haqidagi qoidalar barcha uchun bir xilda *majburiy, yagona va umumxalqiydir*. Ularni har kim o‘zicha, o‘zi bilganicha o‘zgartirib qo‘llashi mumkin emas. Masalan, *kitob* so‘zini ba’zilarning *kitop*, boshqa birovlarining *kitab* yoki *kutop* tarzida noto‘g‘ri yozishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, *yo‘q, xol* so‘zlarini boshqa birovlarining *jo‘q, qol* tarzida noto‘g‘ri talaffuz qilishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi va b. Demak, til madaniyatiga amal qilish o‘sha tilda yozadigan yoki so‘zlaydigan barcha kishilar uchun bir xilda tegishli. Shu sababli ham adabiy til normalari shevalar normalasidan *umumxalqiyliigi, umumqo‘llanuvchanligi* bilan ajralib turadi. Ammo adabiy normalar qandaydir qotib qolgan (o‘ta konservativ) narsa emas, balki nutqiy

faoliyatning, nutqiy ko‘rinishlari, nutqiy uslublarning xususiyatiga ko‘ra muayyan qirralarga ega bo‘luvchi, tovlanuvchi murakkab hodisadir” [Кўнфуров, 1990: 32].

Ma’lumki, til korpuslaridan faqat yozma matnlar emas, balki og‘zaki nutqqa oid matnlar ham o‘rin oladi. Shu sababli ularga og‘zaki nuqtning turli ko‘rinishlarini farqlovchi parametrlar ham kiritilishi kerak. Manbalarda og‘zaki nutqning turli vazifaviy (funktional) ko‘rinishlari mavjudligi aytiladi. Kundalik adabiy so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlariga adabiy tilda gapiruvchi shaxslarning kundalik so‘zlashuv nutqini kiritish mumkin [Кўнфуров, 1990: 32].

Bular quyidagicha tasniflanadi:

Lektorlar nutqi. Bu ko‘rinishga o‘rta va oliy maktab o‘qituvchilari, targ‘ibotchi ma’ruzachilar, olimlarning ma’ruza va chiqishlarini kiritish mumkin. Og‘zaki nutqning bu xili, asosan, monologik nutq xarakterida bo‘ladi.

Radio va televidenie nutqi (tili). Bu ko‘rinishga radio, televidenie orqali adabiy tilda so‘zlangan nutqlar kiradi. Radio va televidenie nutqi asosini suxandon, radio va televidenie izohlovchilari nutqi tashkil qiladi. Radio, televidenie orqali adabiy tilda olib borilgan eshittirish, ko‘rsatuv, suhbatlar tili radio/televideniening o‘ziga xos talablariga bo‘ysunadi va ba’zi o‘ziga xos me’yoriy tomonlarga ega.

Sahna nutqi. Og‘zaki nutqning alohida turi sahna nutqidir. Sahna nutqida ijro etilayotgan asarning til xususiyatlarini saqlagan holda, tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan tilda so‘zlashga intilish mavjud. Sahna nutqining umumtushunarli bo‘lishini ta’minlaydigan asosiy omil adabiy tilda so‘zlashdir. Bunda adabiy talaffuz, ayniqsa, muhim o‘rin tutadi. Sahna nutqi nutqning yuqorida qayd qilingan ko‘rinishlaridan dialogik xarakterga egaligi bilan ham farqlanadi.

Nutqiy turlarni ba’zan ijtimoiy tabaqalar va guruhlar tili nuqtai nazaridan nomlash ham uchraydi. Chunonchi: o‘qituvchilar nutqi, o‘quvchilar nutqi, yosh-talabalar nutqi, bola nutqi (bog‘cha bolalari nutqi) kabi. Bu haqda keying tadqiqotlarimizda batafsil ma’lumot beramiz.

Nutqning yuqorida keltirilgan xillari ham nutq madaniyatining asosiy talablariga bo‘ysunadi. Chunki ularning til asoslari ham adabiy til normalaridir. Shu tufayli ham bu nutqiy ko‘rinishlardan talab qilinuvchi nutq madaniyati haqida ham alohida gapirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanish masalalarining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish - tilning amaliy, estetik va madaniy jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Uslubiyat va nutq madaniyati o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular tilning boy imkoniyatlarini to‘liq ochib berish uchun bir-birini to‘ldiradi. Funktional uslublarni aniqlash, grammatik va leksik birliklarning stilistik xususiyatlarini belgilash, ularni til korpuslarida aks ettirish o‘zbek tili stilistikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутқ маданиятига оид масалалар, Тошкент: Фан, 1973
2. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва, 1963. – С. 93.

3. Ломоносов М.В. Краткое руководство к риторике. 1743.
4. Тожиев Ё., Хасанова Н., Тожиматов Х. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994.
5. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Университет ва педагогика институтларининг филология факультетлари учун қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
6. Қўнғуров Р. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1990.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe‘l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbalarida ishlangan Azərbaycan antroponimlerinin leksik-semantik tahlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk'</i> ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775